

Date: 21<sup>st</sup> March-2025

**SHAXSIY HUJJAT MATNLARINING SEMANTIK-STILISTIK  
XUSUSIYATLARI**

**Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna**

Osiyo xalqaro universiteti

“Pedagogika psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi

E-mail: [bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz](mailto:bobojonovadilnozaoxunjonovna@oxu.uz)

**Annotatsiya** Xat insonlar o’rtasidagi muloqot shakllaridan biri bo‘lib, uning yuzaga kelishi yozuv va masofa bilan bog‘liqdir. Ya’ni, u faqat yozuv yordamidagina shakllanadi va ma’lum masofada bo‘lgan kishiga jo‘natiladi. Unda xat muallifining fikr-mulohazalari ifoda etiladi. Xatni jo‘natish esa ma’lum vositalar yordamida amalga oshiriladi.

**Kalit so’zlar:** hujjat, xat, shaxsiy xat, rasmiy xat

Yozuv bilan bog‘liq ravishda o‘z tarixiga ega bo‘lgan va omma orasida keng tarqalgan xat bitish xalqimizning muomala madaniyati doirasida insonlarning bir-birlariga fikr ifoda etishning alohida usuli sanalgan va san’at darajasiga ko‘tarilgan. Ayni paytda, xatga badiiy ijodning bir turi sifatida qaralgan. Shuning uchun ham u badiiyat ilmida alohida bir janr sifatida o‘rganilgan. «Abo‘l Hasan al-Marg‘iloniyning «Mahosinulkalom», Muhammad bin Umar ar-Rodiyoni (XI asr) ning «Tarjimonul balog‘a», Rashididdin Vatvot (XII asr) ning «Hadoyiqus-sehr fi daqoyiq ush she’r», Shamsiddin Qays Roziyoning «Al-mu’jam fi maosir ush ash’or ul Ajam», Tojud Xalaviy nomi bilan mashhur bo‘lgan Ali ibn Muhammad (XIV asr) ning «Daqoyiqush - she’r» kabi badiiyat masalalaridan bahs etuvchi asarlaridagi alohida boblar, Amir Xusrav Dehlaviy (XIV asr) ning «Mahzanul – insho», «Sahifai Shohiy» nomli asarlari maxsus insho nazariyasiga bag‘ishlangan.

Munshaot, ya’ni nasr yoki nazmda maktublar bitish Sharq poeziyasida san’at darajasiga ko‘tarilgani uchun ham, u alohida she’riy janr sifatida e’tirof etilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda insoniy muomalaning xat usulidan foydalanish imkoniyatlari ham jiddiy ravishda kengaydi. **Avvaliga ular ikki kishi o’rtasidagi yozishmalardangina iborat bo‘lgan bo‘lsa, endilikda xat bitish rasmiy uslub doirasida qaraladigan nutqiy jarayonning alohida bir ko‘rinishiga – yozma turiga aylandi.** Hozirgi kunda xatlar idoralar va muassasalar, tashkilotlar va korxonalar o’rtasidagi o‘zaro faol aloqa vositasi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning qulay usuli sifatida xizmat qilmoqda. Shu ma’noda ularni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin bo‘ladi:

- 1. Shaxsiy-xususiy xatlar;**
- 2. Xizmat (rasmiy) xatlari.**

**Shaxsiy-xususiy xatlar** bir kishining boshqa bir kishiga yo‘llagan xati bo‘lib, bu xatlar o‘zaro munosabatda va g‘oyibona muloqotda bo‘layotgan kishilarning yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqyei hamda xatni yozishdan ko‘zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib,

Date: 21<sup>st</sup> March-2025



turlicha mazmunda bo‘ladi. Jumladan, bunday xatlar biron-bir yangiliq voqyea-hodisa haqida, masalan, oilada farzand tug‘ilishi, to‘y-tantana yoki yaqin kishining vafoti to‘g‘risida xabar berishi, shu bilan birga, bir-birlarini uzoq vaqt ko‘rmagan kishilarning sog‘inch tuyg‘ularini ifodalovchi yoki ishqiy mazmunda bo‘lishi mumkin.

**Xizmat (rasmiy) xatlari** muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko‘lami keng bo‘lib, bularda turli ko‘rsatmalar, so‘rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimislар, kafolatlar beriladi va qabul qilinadi. Xatlar bajaradigan vazifasiga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

1. Javob xatini talab qiluvchi xatlar. Bunday xatlarga javob yoziladi (da’vo xatlari, so‘rov xatlari, iltimos xatlari).

2. Javob xatini talab qilmaydigan xatlar. Bunday xatlarga javob yozilmaydi (ilova xatlari, tasdiq xatlari, eslatma xatlari, axborot xatlari, kafolat xatlari..).

Xizmat xatlari odatda xatlar uchun tayyorlangan bosma ish qog‘ozlarga yoziladi. Xizmat xatlarda zaruriy qism bo‘ladi. Ularda avvalo, o‘zbek tilida, keyin rus yoki ingliz tilida matnlar beriladi. Zaruriy qismda vazirlik, tashkilot nomi, manzili, telefon raqami, elektron pochtasi kabi ma‘lumotlar yoziladi. O‘zbek tilidagi, keyin rus yoki ingliz tililarining biridagi matnlar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasining gerbi joylashtirilgan bo‘ladi. Keyin chap tomonda xat yoborilayotgan tashkilot nomi, uning rahbarining ismi, otasining isma,, familiyasi jo‘nalish kelishigida yoziladi. Undan eyin xat matni, matnning oxirida xat yuborayotgan muassasa nomi, rahbarining imzosi, ismi, otasining isma,, familiyasi yoziladi.

Har qanday xizmat xati o‘zaro bog‘liq bo‘lgan 3 qismdan iborat bo‘ladi. Xatning biranchi qismida xat bilan tegishli muassasaga murojaat etishga majbur qilgan sabablar ko‘rsatiladi. Ikkinci qismida xatda qo‘yilayotgan masalani hal qilish zarurligi dalillar asosida bayon qilinadi. Xatning uchinch qismida xat yozishdan ko‘zlangan maqsad bayon qilinadi. Xizmat xatlari asosan 1 betlik, muhim xatlarning hajmigina undan ko‘proq bo‘ladi.

Xizmat xatlari odatda qisqa, aniq va ravshan hamda rasmiy uslubda yozilishi talab etiladi. Rasmiy xatlarda ikki xil mazmunda tushuniladigan so‘lar bo‘lmasligi uchun ko‘chma ma‘nodagi so‘z va iboralar bo‘lmasligi lozim.

Xizmat xatlari ikki nusxada yozilib imzolanadi. 1 nusxasi jo‘natilib, 2 nusxasi tasatkilotning o‘zida saqlqnadi. Xizmat xatlari odatda, muassasa nomiga, zarurat bo‘lganda rahbar nomiga yoziladi.

Xizmat xatlarida sarlavha muhum hisoblanib, u hujjatning qisqacha mazmunini ifodalaydi: “Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish markaziga homiylik qilish haqida”, “Talabalarning anjumanda ishtirok etishi haqida”, “Talabalarning Toshkent shahriga borib kelishlari haqida”. Sarlavha bir jumladan iborat bo‘lib, haqida to‘g‘risida kabi ko‘makchilar yordamida tugatiladi. U xat matnidan oldin chap tomonda joylashtiriladi.

# METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.

## International online conference.

Date: 21<sup>st</sup> March-2025



Xat matnidan so‘ng xatga imzo qo‘yuvchi rahbarning lavozimi nomi ko‘rsatiladi. Rahbarning imzosi, undan keyin uning ismi, otasining ismi, familiyasi yoziladi. Rahbar bo‘lmagan taqdirda vaqtinchalik uning vazifasini bajaruvchi tomonidan imzo qo‘yadi va unung lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi yoziladi.

Xatda bayon qilingan masalalar bo‘yicha javobgarlik bir necha xodim zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, imzo qo‘yuvchilar soni ortadi, ularning imzolari egallab turgan lavozimlariga ko‘ra joylashtiriladi.

Agar xatga hujjat yoki hujjatlar ilova qilinayotgan bo‘lsa, xatning quyi qismi chap tomoniga „Illova“ so‘zi yozilib, ilova qilinayotgan hujjatlarnomi, nusxasi va beti ko‘rsatiladi.

Shaxsiy xatlardan namunalar:

*Hurmatli Anvar aka, assalomu alaykum. Hammamiz sog‘ va salomatmiz. Kelin oyim orqaliq berib yuborg‘an xatingizni oldiq, sog‘lig‘ingizni, tinchlig‘ingizni o‘qib va eshitib juda xursand bo‘ldiq: ilohi, salomat bo‘lsinlar. Soniy, bizdan ahvol so‘rasangiz alhamdulliloh tinchmiz, xotirjam bo‘lursiz. So‘ratib yuborg‘an kitobingizni berib yubordim. Ayamdan sizga salom, boqiy so‘zni Shayxi Sa‘diydan o‘qursiz deb xatni muxtasar qildim, Ra’no. (Qodiri A. Mehrobdan chayon. 580-bet).*

*Huvalbori (ul tangri, ul yaratguvchi - muallif izohi) ...ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma‘lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulilloh biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘srlaringiz munda haq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom (doimo, hamisha) rabbo‘lolamindan rajo (umid, tilak) va tamanno (istaq xohish) etmakdamiz. Janobi haq bod fursatlarda (tez vaqtda, tezlikda) yaqin va sa‘id (baxtli) soatlarda to‘kis tugallik birlan diydor ko‘rishmakka nasib va ro‘zi qilsin, omin yorabbo‘lolamin. Ba‘da (keyin, so‘ng) so‘zimiz: o‘g‘lim, Marg‘ilong‘a sihhat va salomat yetish maktubingni olib haq taolog‘a Shuko‘rlar qildiq. Bizning Toshkanddan ahvol so‘rasang, balki Marg‘ilong‘a ham eshitilgandir, munda Azizbek qandoqdir bir kuchka tayanib Qo‘qong‘a isyon etdi. Xazina hisobini olish uchun kelgan devonbeklarini o‘ldirib o‘rda darbozasiga osdi, bunga qarshi Qo‘qon ham tinch yotmag‘an bo‘lsa kerak. Bu kun Kirovchidan (Qurama bilan Telov orasida katta bir qishloqdir) besh ming sipoh ila Normuhammad qushbegini Toshkand ustiga buyurilg‘anlig‘in eshitdik. Fuqaroning tag‘in qandog‘ ko‘rguliklari bor ekan, o‘g‘lim!*

*...Shuni ham aytib qo‘yayki, bu tinchsizlik bosilmag‘uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir. Toshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo‘lsam) o‘zim xabar yuborurman. Munda barcha yoru do‘sit salomat, mendan Hasanaliga salom ayt! Addoi otang Yusufbek hoji. Toshkand, 27 dalv oyida 1264-nchi yilda yozildi.*

Ular shakliy jihatdan ham umumiylidka ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Umumiyligi va o‘xshashligi shundan iboratki, **har bir xat** ma‘lum qurilishga ega bo‘lib, **muqaddima, asosiy mazmunni ifodalovchi qism** va **xotimadan tashkil topadi**. **Muqaddima qismida** kimga murojaat qilinayotgani, **asosiy qismida** murojaat etishning

Date: 21<sup>st</sup> March-2025

sabablari va **xotimada** yakunlovchi, umumlashtiruvchi fikrlar bayon etiladi. Lekin xat mazmuniga qarab, bu har uch qismda qo'llanilayotgan so'z va iboralar bir-birlaridan farqlanadi. Hatto har bir qismning o'zida qo'llaniladigan so'z va iboralar ham farq qilishi mumkin.

**Shaxsiy-xususiy xatning muqaddima qismidagi** murojaatlarni tahlil qilib ko'raylik. Masalan, **ota-onalarning armiyada xizmat qilayotgan o'g'liga yozgan xatinining muqaddimasi** bilan ularning o'g'li xizmat qilayotgan qism komandiriga yozgan xati muqaddimasini taqqoslaylik. Xatlar o'g'liga nisbatan taxminan *sevimli o'g'limiz, sevimli farzandimiz, ko'zimizning oqu qorasi, ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, nuri diydamiz* singari murojaatlar bilan boshlansa, **komandirga yozilgan xat boshidan hurmatli Nurislom Suyunov yoki muhtaram Nurislom Hamidullayevich Suyunov** tarzida yoziladi. Har ikki holatda ham samimiyat va o'ziga xos hurmatni payqaymiz. Ayni paytda, ikkinchi holatda ma'lum ma'noda rasmiylik ham seziladi. Shunday ekan, uslub talablariga ko'ra ularning biri o'rnini ikkinchisi bilan almashtirib bo'lmaydi.

**Rasmiy xatlarda** ham xuddi ana shu tarzda uslubiy farqlar bilinib turadi. Masalan, **mamlakatlararo davlat rahbarlariga yozilgan xatlarning muqaddimasi bilan oddiy bir tashkilot, muassasa rahbariga yoziladigan xatning muqaddimasi ham o'zaro farq qiladi:** *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov janobi oliylariga! «Oriyon» konserni rahbari muhtaram (hurmatli) Fayzulla Ziyoyevga!* Respublika Prezidentga nisbatan *hurmatli, muhtaram so'zlarini qo'llash mumkin bo'lgani holda konsern rahbariga nisbatan janobi oliylari iborasini qo'llab bo'lmaydi.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov*

*janobi oliylariga*

*Janobi Oliylari,*

*Sizni O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yillik bayrami bilan muborakbod etishga ijozat bergaysiz. O'zbekiston Respublikasi xalqiga bundan buyon ham ravnaq, baxt-saodat va farovonlik tilayman. Yelizaveta Ikkinci. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Qirolichasi.*

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Oxunjonovna, B. D. (2024). BOZHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 122-125.
3. Oxunjonovna, B. D. (2024). DAVLAT TILIDA ELEKTRON ISH YURITISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 235-240.

**METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE  
EDUCATIONAL SYSTEM.  
International online conference.**

---

Date: 21<sup>st</sup>March-2025



4. Oxunjonovna, B. D. (2024). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 229-234.
5. Oxunjonovna, B. D. (2024). HUJJATLAR BILAN ISHLASHDA O 'ZBEK TILI ME'YORLARINI QO 'LLASHNING DOLZARBLIGI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 247-252.
6. Oxunjonovna, B. D. (2024). HUJJATLARNI DAVLAT TILIDA YOZISHDA TERMINOLOGIYA VA UNING STANDARTLASHUVI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 1-7.
7. Oxunjonovna, B. D. (2024). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNING XALQARO TAJRIBASI VA O 'ZBEKISTONGA MOSLASHUVI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 241-246
8. O 'ZBEK TILIDA ISH YURITISHNING YANGI TEXNOLOGIK IMKONIYATLARI BD Oxunjonovna - Problems and solutions at the stage of innovative ..., 2024
9. Oxunjonovna, B. D. (2024). O 'ZBEK TILINING RASMIY ISH YURITISH TILIGA AYLANISH TARIXI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 32-37.
10. Bobojonova, D. (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S" DEVONU LUGOTIT TURK". Modern Science and Research, 2(9), 64-67.
11. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 2(10), 670-675.
12. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI'S" DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 538-540.
13. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. PEDAGOGS jurnali, 14(1), 22-25.
14. Okhunjonovna, B. D. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 333-338.
15. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK" DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. *Modern Science and Research*, 2(12), 742-748.
16. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). Modern Science and Research, 3(2), 739-746.
17. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK" DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. Modern Science and Research, 2(4), 568-5672.

**METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE  
EDUCATIONAL SYSTEM.  
International online conference.**

---

Date: 21<sup>st</sup> March-2025



18. khunjonovna, B. D. (2024). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug'otit Turk" and Currently Available. *Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(2), 194-198.
19. Bobojonova, D. (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. *Modern Science and Research*, 3(1), 687-693.
20. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 125-131.
21. Oxunjonovna, B. D., & Sadriddinovna, F. N. (2024, December). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MAQOLLARNING KONSEPTUAL TAHLIL MUAMMOLARI. In Uz Conferences (Vol. 2, No. 4, pp. 41-44).
22. Бободжонова, Д. (2024). IT IS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE ANALYSIS OF PROVERBS OF THE MUSICAL PROFESSION. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 402-413.
23. Oxunjonovna, B. D. (2024). "SIPOHI", "JANGCHI" LEKSEMALAR HAMDA "SAVDOGAR", "SAYYOH" LEKSEMALAR ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(4), 331-338.
24. Oxunjonovna, B. D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ KASB-KOR TURLARI (Temirchilik kasb-hunari doirasida).
25. Oxunjonovna, B. D. (2024). TEMIRCHILIK KASB-HUNARIGA OID LEKSEMALARINING XALQ MAQOLLARIDA NAMOYON BO'LISHI.
26. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING «DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARI-ILMIY AHAMIYATLI ME'ROS.
27. Oxunjonovna, B. D. (2023). O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING AHAMIYATI.
28. Oxunjonovna, B. D. (2024). RESPUBLIKAMIZDA DAVLAT TILI SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 44-49.
29. Oxunjonovna, B. D. (2024). ISH YURITISHDA TIL MADANIYATI VA SO 'ZLASHUV ODOBНИNG AHAMIYATI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 8-13.
30. Oxunjonovna, B. D. (2024). RASMIY USLUBDA O 'ZBEK TILI: HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 38-43.
31. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINING ISH YURITISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO 'NALISHLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 52-57.
32. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI O 'RGATISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI HAL ETISH USULLARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 65-71.

**METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.  
International online conference.**

Date: 21<sup>st</sup> March-2025



33. Oxunjonovna, B. D. (2025). ELEKTRON TIZIMLARDA DAVLAT TILINING QO ‘LLANILISHI VA UNING RIVOJI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 17-23.
34. Oxunjonovna, B. D. (2025). MAMLAKATNING TURLI HUDUDLARIDA ISH YURITISHDA DAVLAT TILINING O ‘ZIGA XOS QO ‘LLANISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 10-16.
35. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA ISH YURITISHNI JORIY ETISHNING AMALIY TAJRIBALARI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 3-9.
36. Oxunjonovna, B. D. (2025). RASMIY HUJJATLARNI TUZISHUDA DAVLAT TILIDAGI ANIQ TALABLAR VA STANDARTLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 45-51.
37. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH BO ‘YICHA OLIB BORILAYOTGAN SIYOSATNING ISH YURITISH TIZIMIDAGI O ‘RNI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 24-30.
38. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILINI ISH YURITISHDA QO ‘LLASHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUN VA ME’YORIY HUJJATLAR. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 31-37.
39. Oxunjonovna, B. D. (2025). DAVLAT TILIDA RASMIY USLUBNING O ‘ZIGA XOSLIGI VA UNING TO ‘G ‘RI QO ‘LLANILISHI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 58-64.
40. Oxunjonovna, B. D. (2025). ISH YURITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA DAVLAT TILINING INTEGRATSIYASI. *Prospects for innovative technologies in science and education*, 2(1), 38-44.
41. Oxunjonovna, B. D. (2025). BOYOQCHILIK HAMDA KULOLCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN O ‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 98-101.
42. Oxunjonovna, B. D. (2024). O ‘ZBEK TILIDA ISH YURITISHNING YANGI TEXNOLOGIK IMKONIYATLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 1(2), 26-31.
43. Bobojonova, D. (2024). OZBEK XALQI TURMUSHI BILAN BOGLIQ MUSIQACHILIK KASB-HUNAR MAQOLLARI TAHLILI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 553-564.
44. Oxunjonovna, B. D. (2025). TIL VA JAMIYAT O’ZARO MUNOSABATI.
45. Oxunjonovna, B. D. (2025). AQL VA DONO SO ‘Z. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 33-38.
46. Oxunjonovna, B. D. (2025). VATAN VA YURTPARVARLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 51-56.
47. Oxunjonovna, B. D. (2025). OMAD VA TAQDIR. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 1-6.

**METHODS OF APPLYING INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE  
EDUCATIONAL SYSTEM.  
International online conference.**

Date: 21<sup>st</sup>March-2025

48. Oxunjonovna, B. D. (2025). ODOB-AXLOQ. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 7-12.
49. Oxunjonovna, B. D. (2025). SAVDO VA BOYLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 20-25.
50. Oxunjonovna, B. D. (2025). MEHNAT VA TIRIKCHILIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 26-32.
51. Oxunjonovna, B. D. (2025). O 'QISH VA ILM. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 57-62.
52. Oxunjonovna, B. D. (2025). DO 'STLIK VA BIRODARLIK. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 39-44.
53. Oxunjonovna, B. D. (2025). SABR-TOQAT VA MATONAT. *Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies.*, 2(2), 13-19.
54. Oxunjonovna, B. D. (2025). ZARGARLIK ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARI TAHLILI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(1), 245-248.
55. Xaqqulova, D. (2024). ABDURAHMON GO 'ZAL-YASSAVIYSHUNOS. *PEDAGOG*, 7(6), 8-15.
56. Xaqqulova, D. (2024). ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO 'ZALNING TADQIQOTLARI XUSUSIDA. *PEDAGOG*, 7(5), 548-555.
57. XAQQULOVA, D. (2023). BADIYLIK MASALALARI TADQIQIDA OLIM MAHORATI. *Наука и технология в современном мире*, 2(5), 5-11.
58. Abduvasiyevna, X. D. (2024). SO 'Z TUZILISHI VA SO 'Z YASASH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 261-266.
59. Abduvasiyevna, X. D. (2024). NUTQ MADANIYATI VA OG 'ZAKI MULOQOT. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 255-260.
60. Abduvasiyevna, X. D. (2024). MATN TAHLILI VA MAZMUNNI TUSHUNISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 279-284.